



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

## BOLALARNING ISTE'DODLARINI YUZAGA CHIQRISHDA SAN'AT TURLARINING AHAMIYATI

**Oltiboyeva Mehribonu Bahrom qizi**

E-mail: [oltiboyevamehribonuphd@gmail.com](mailto:oltiboyevamehribonuphd@gmail.com)

***Annotatsiya.** Ushbu tezisda bolalarning ma'naviy jihatdan fikrlashi dunyoqarashini rivojlantirishda san'at turlarining ayniqsa tasviriy san'atning ahamiyati beqiyos ekanligi haqida hamda bolalarning shaxs sifatida shakllanishlarida taniqli pedagogpsixologlarning fikrlari, maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida badiiy-estetik madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirishda tasviriy faoliyatning tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** san'at turlari, musiqa, teatr-kino, tasviriy san'at, yetuk shaxs, tasviriy faoliyat.*

Yoshlarimizda bilimdon, ma'naviy va jismoniy yetuk shaxsni shakllantirish bugungi kun uchun eng ustuvor vazifadir. Insoniyat ma'naviyati hamda madaniyatining tarkibiy ajralmas qismini san'at tashkil qiladi. San'atning turlari nihoyatda ko'p. Masalan ularga musiqa, teatr-kino, xoreografiya, tasviriy san'at va hokazolarni misol keltirishimiz mumkin. Odatda san'at butun borliqni tasviriy obrazlarda, turli xil shakllarda, atrofdagi mavjud predmetlarni asl ko'rinishini o'ziga moslashtirib umumlashtirib ifodalab ko'rsatadi va shu bilan birgalikda ularning hajmini turli fazoviy kenglikda ifodalaydi. San'at ahli o'zi yartadigan har bir asarlarida turli voqea-hodisalarning ma'lum holatini bir lahzasini ko'rsatib, uning mazmun-mohiyatini har tomonlama ochib berishga harakat qiladi. Bunda insonlarning ichki botiniy va ma'naviy ko'rinishi, psixik-psixologik tuzilishi hamda shu kabi fikrlar yuzaga chiqadi.

San'atning yillar davomida sayqallangan eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri – bu tasviriy san'at hisoblanadi.

Tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish inson ongiga tezda ta'sir etibgina qolmay kishida ezgu-yaxshi hislarni uyg'otadigan, ruhlantirib, uning ma'anaviy dunyosini boyitadigan san'at turlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, tasviriy faoliyat inson shaxsiyatining shakllanishiga va kamolotiga yordam beruvchi tarbiya kabidir.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kun bolalari kelajakda turli xil kasb egalari jumladan xoh dizayn-konstruktor, muhandis, xoh shifokor, o'qituvchi, yurist yoki harbiy mutaxassis bo'lsin, ular biron-bir sohani yaratuvchilari bo'ladilar. Qaysi soha vakillari bo'lishlaridan qat'iy nazar har bir kasb uchun rasm chiza olishlari hamda undan foydalana olishlari lozim bo'ladi. Hattoki hozirgi kunda uy bekalari ham rasmni ko'rib tushuna olishlari bugungi zamonning eng zaruriyatiga aylanib bormoqda. Hozirgi davrda har bir kishi turli xil ko'rinishdagi texnikalar bilan



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

shug'ullanishga, oddiy dazmol, tikuv mashinalari, televizor-radio, kir yuvish mashinalari, muzlatgich, elektr plitalar va hozalar kabi yuzlab minglab texnik buyumlar bilan shug'ullanishga to'g'ri keladi. Ularga asbob-texnika vositalarini ishlatish hamda ularni sozlash uchun grafik bilim va malakalar juda zarur. Shuning uchun ham har bir kishi rasm chizishni, grafik tasvirlar ustida ishlashni bilishi darkor.

Bugungi kunda har bir kishi grafik bilimga ega bo'lishi uning o'zi uchun ham, jamiyatimiz uchun ham suv va havodek zarur bo'lmoqda. Shunga ko'ra mashhur fransuz faylasufi Didro qariyb bundan 300 yillar oldinroq, - "Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o'qish-yozish kabi bilsalar edi, bu mamlakat barcha sohalarda har qanday mamlakatni quvib yetadi va ortda ham qoldiradi" – degan edi. Tarixdan ma'lumki, dunyoga mashhur yozuvchilar, shoirlar, geograflar, tarixchi, adabiyotchilar, konstruktorlar va boshqa soha alloma-mutafakkirlari rasm chizishni juda yaxshi bilganlar. Bulardan Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Gyote, Anderson, Pushkin, Tagor, Mikluxo-Maklay, Mendeleyev, Botir Zokirov kabi turli soha ijodkorlari rasm chizish bilan jiddiy shug'ullanib kelganlar.

Xullas qisqa qilib aytganda, har bir soha ijodkorlari uchun rasm chizishni bilish ularga ulkan ijodiy imkoniyatlar hamda madaniy-ma'naviy ozuqa beradi.

Agarda har o'qituvchi-pedagoglar rasm chizishni bilishganlarida edi, ular dars berish jarayonida yuksak samaradorliklarga erishardilar. Dars mashg'ulotlarini o'zlashtirish o'quvchilar uchun ham juda oson va yengil bo'lardi. Shularni inobatga olgan holda bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarga, maktablarda o'quvchilarga badiiy-estetik bilim va malakalar berishga katta e'tibor qaratilmoqda. Rasm chiza olish insonlarga chizish bilan bir qatorda ko'pgina qobiliyatlarni shakllantirishga, rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, rasm chizish nafaqat ko'rish idroki tezligini, shu bilan birgalikda yaxshi ko'rish xotirasini ham shakllantiradi. Bu borada mashhur rassom haykaltarosh Mikelandjelo aytganidek: "San'at – ularning ko'zlarida sirkul va chizg'ichni bir paytning o'zida joylashtirishga o'rgatgan". Bundan tashqari razvetkachi Iogan Vays (Sasha Belov) maxfiy hujjatlarning ko'plab sahifalarini bir ko'rishda eslab qolgani ko'pchilikka ma'lum.

Rassomlar har doim ko'rish xotirasi, eslab qolish xotirasi kuchliligi bilan shuhrat qozonganlar. Mashhur rassom Levitan o'rtoqlarini lol qoldirgan. Qish tunida bir guruh rassomlar o'rmonga sayrga o'tlanishadi. Ular ertaklardagidek go'zal manzaraga guvoh bo'lishadi - moviy, oy shu'lasi yoritib turgan qorda kul rang-pushti jemovlar va ular uzra qorga o'rangan qarag'aylar. Hamma manzaradan bahra olib, uy-uyiga tarqaydi. Oradan bir necha kun o'tib, rassomlardan biri Levitan ustaxonasida kartinani ko'radi: xuddi o'sha tungi manzara - moviy qordagi kul rang-



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

pushti jemovli manzara. Levitan uni, razvedkachi Vays maxfiy hujjatlami eslab qolgani kabi eslab qolgan va xotiradan chizgan.

Rassom Ayvazovskiy shunday ko'rish xotirasiga ega ediki, dengiz ko'rinishlarini o'z ustaxonasiga qamalib olib tasawuri bo'yicha chizardi. Hikoya qilishlaricha, u Peterburgdagi bir kvartiradan ketayotib, devorda kiyim ilgich ostiga o'z po'stinini shunday chizib qo'yganki, uy egasi ijarachi po'stinini unutib qoldiribdi, degan xayolga borgan. Faqat yaqinroq kelganidagina, po'stin chizib qo'yilganini fahmlagan. Shunday qilib, barchaning san'at va go'zallik olamini bilishi ta'limning barcha sohalarida jadal rivojlanishga olib keladi.

Ma'lumki, san'at bir necha avlodning ko'p yillar davomida shakllangan an'analari, ustaning shogirdga o'tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa so'zsiz umumiy badiiy ta'lim yo'nalishida bo'lmasa ham, kasbiy badiiy ta'lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi misollardan xulosa qilib aytganda tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish bolalarning kelajak hayotida juda katta ahamiyat kasb etadi, ularning shaxs sifatida shakllanishlarida, yuqori salohiyatli, yetuk kadrlar bo'lishlarida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xasanboyeva O.U. va boshqalar. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" T.:Ilm ziyo-2006.
2. Nurmatova M.SH. Xasanova SH.T. "Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi". "Cho'lpon", T.: 2010
3. Takolillashtirilgan "Bolajon" tayanch dasturi. T.:2016
4. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". T.:Tafakkur bo'stoni, 2013
5. <http://library.zionet.uz>
6. <https://arxiv.uz>